

MAMLAKATNING INNOVATSION-INVESTITSION FAOLIYATIDA VENCHUR INVESTITSIIYALARINING O'RNII, AMALGA OSHIRISH TARTIBI VA XORIJI TAJRIBASI

Muxitdinova Kamola Alisherovna

Toshkent davlat texnika universiteti, DSc., prof.v.v.b.

Annotatsiya: Maqolada vechur investitsiyalarning mohiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, Yevropa start-uplari, Koreya, AQSh, Xitoy, Yaponiya va ko'pgina rivojlangan davlatlar vechur fondlari haqida ma'lumotlar yoritilgan. Shuningdek, muallif tomonidan innovatsion-investitsion faoliyatda vechur investitsiyalarga ta'sir qiluvchi determinantlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: vechur bozori, vechur sarmoyalar, start-up loyihalar, vechur tashkilotlar, vechur fondlar, skaylap, determinant, innovatsion loyihalar, risklilik darajasi.

РОЛЬ ВЕНЧУРНЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ИННОВАЦИОННОЙ И ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТРАНЫ, ПОРЯДОК ИХ РЕАЛИЗАЦИИ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

Мухитдинова Камола Алишеровна

*DSc., и.о. профессора Ташкентского государственного технического
университета*

Аннотация: В статье представлена информация о сути венчурных инвестиций, охватывающая европейские стартапы, венчурные фонды из Кореи, США, Китая, Японии и многих развитых стран. Автор также проанализировал факторы, влияющие на венчурные инвестиции в инновационно-инвестиционную деятельность.

Ключевые слова: венчурный рынок, венчурный капитал, стартап-проекты, венчурные организации, венчурные фонды, skaylap, детерминанта, инновационные проекты, уровень риска.

THE ROLE OF VENTURE INVESTMENTS IN THE COUNTRY'S INNOVATIVE AND INVESTMENT ACTIVITIES, THE PROCEDURE FOR THEIR IMPLEMENTATION AND FOREIGN EXPERIENCE

Mukhitdinova Kamola Alisherovna

Abstract: The article provides information on the essence of venture investments, and covers information on European start-ups, venture funds of Korea, the USA, China, Japan and many developed countries. The author also analyzed the determinants affecting venture investments in innovative and investment activities.

Keywords: *venture market, venture capital, start-up projects, venture organizations, venture funds, skylap, determinant, innovative projects, risk level.*

KIRISH

Mamlakatning raqabatbardoshligini oshirish, jahon bozorida uning mavqeini ko'tarish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash, shuningdek mamlakatning innovatsion-investitsion faoliyatida venchur investitsiyalarning o'rni beqiyosdir. Jahon venchur bozori so'nggi o'n yil ichida deyarli to'rt barobar oshgan bo'lishiga qaramasdan, 2021-yildagi keskin o'sish ko'rsatkichlari asta-sekin pasayib bormoqda, inflyatsiya va foiz stavkalarining oshishi natijasida (bu holatni jahon neft va gaz bozoridagi o'zgarishlar bilan ham izohlash mumkin) texnologik start-uplarga qiziqish pasaymoqda. «2021-yildan keyin venchur investitsiya bozorining hajmi birinchi marta maksimal darajaga yetdi va taxminan 775 milliard dollarni tashkil etdi. 2022-yilda faollik pasayishni boshladi va venchur sarmoyalari 543 milliard dollarni tashkil etdi. 2023-yilga kelib, bozor hajmi atigi 243 milliard dollarni tashkil etdi, bu uni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 46 foizga kamayganini ko'rsatmoqda. 2023-yil prognozlar shuni ko'rsatadiki, venchur bozorining kamayishi 30 foizini tashkil etishi mumkin, bu ko'rsatkich oxirgi yillardagi eng salbiy ko'rsatkich bo'lishi mumkinligi e'tirof etilmoqda» [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Venchur investitsiyalarining iqtisodiyotga ta'siri, start-up va innovatsion loyihalarning rivojlanishiga qo'shadigan hissasi bo'yicha qator ilmiy ishlar mavjud.

P. Gompers hamda J.Lerner tadqiqotlarida venchur kapital fondlarining shakllanishi, ularning innovatsiyalarni rivojlantirishdagi roli va iqtisodiyotga ta'siri [2], J.Block tadqiqotlarida venchur investitsiyalarining start-uplarga ta'siri va ularning moliyaviy barqarorligiga doir dalillar asoslangan [3].

C.Mason hamda R.Harrison esa venchur investitsiyalar va biznes farishtalarining iqtisodiy inqiroz sharoitida o'zini qanday tutishi tahlil qilgan [4].

World Investment Report-2023 davenchur kapital bozorining jahon miqyosidagi dinamikasi, yirik investitsion markazlar va davlat dasturlari tahlil qilingan [5].

M. Kenney hamda J.Zysman tadqiqotlarida venchur kapitalning start-uplar ekotizimiga ta'siri va AQSh, Xitoy, Yevropa tajribasi keltirilgan [6].

Y.Huang hamda T.Khanna Xitoy va Hindistondagi venchur kapital bozori farqlarini tushuntirgan bo'lsa [7], J.Lerner davlat tomonidan venchur kapitalni qo'llab-quvvatlash tajribalari va ularning natijalari [8], J.Poterba ilmiy maqolasida esa AQShda venchur investitsiyalarining soliqqa tortilishi va soliq imtiyozlarining bozor rivojlanishiga ta'siri baholangan [9].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot mamlakatning innovatsion-investitsion faoliyatida venchur investitsiyalarining o'rni, amalga oshirish tartibi va xorij tajribasini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

- tahliliy-uslubiy yondashuv;
- taqqoslash usuli;
- statistik tahlil;
- empirik yondashuv.

Tadqiqot natijalari venchur fondlarining bugungi kunda qanday iqtisodiy va siyosiy sharoitlarda faoliyat yuritayotganini aniqlash hamda O'zbekiston uchun mos keluvchi venchur investitsiya modeli bo'yicha takliflar ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Venchur sarmoyalarining salbiy tendensiyaga ega bo'lishi quyidagi omillar bilan baholanadi:

- AQSh start-up loyihalarining investitsiyalari bilan shug'ullanadigan tashkilotlarni bankrotligi tufayli yopilishi;
- Sanksiyalar va turli xil siyosiy tarang holatlar mavjudligi;
- Eng yirik Xitoy venchur tashkilotlari faoliyatining sekinlashuvi;
- Staingflyatsiya darajasining yuqoriligi.


2016-2023-yillarda jahonda venchur moliyalashtirish hajmi (mlrd. dollar) 1-rasmda keltirilgan.

Keltirilgan omillar venchur tashkilotlarining yangi investitsion loyihalarini chegaralab, mavjud loyihalarga reinvestitsiya qilishni afzal ko'rishlarini ko'rsatib berdi, bunday holatning ijobiy ko'rinishi ham mavjud, masalan boshqa investitsion fondlar kabi, bozorning tebranishlarga moyilligini pasaytiradi.

Masalan, 2023-yildagi holatni tahlil qiladigan bo'lsak, AQSh venchur fondlari sun'iy intellekt, kvant texnologiyalar va geninjineriyasi bilan bog'liq venchur loyihalariga investitsiya kiritishni to'xtatib qo'ydi, bunday cheklovlar Xitoyda o'tgan yillarda ham qo'llanilgan edi, ammo shunga qaramay jami venchur bozorida ularning sezilarli ta'siri kuzatilmadi.

Yevropada start-uplarga va skaylap loyihalarni investitsiya qilish uchun yangi venchur tashkilotlari yaratilmoqda, AQShdagi cheklovlar boshqa davlatlarning venchur bozoriga ta'sir etmaganini ko'rishimiz mumkin. 2022-yilda Yevropada

innovatsiyalarni rivojlantirish uchun davlat dasturi qabul qilindi, ammo bu dastur ijobiy ko‘rinishga ega bo‘lmadi. Ushbu dasturda venchur fondariga qo‘yiladigan talablar birmuncha soddalashtirildi, qimmatli qog‘ozlarni emissiya qilish va shu kabi imtiyozlar ham davlat dasturini mamlakat venchur bozori uchun qiymatini oshirmadi.




1-rasm. 2016-2023-yillarda jahonda venchur moliyalashtirish hajmi, mlrd. dollar [5]

«2023-yilda Yevropa Investitsion Fondi, Yevropa Komissiyasi negizida faoliyat yuritadigan, skaylaplarga sarmoya qiladigan 3,75 milliard dollarli ustav kapitaliga ega umumevropa venchur fondini tashkil etdi. Germaniya va Frantsiya ham o‘zlari alohida davlat kapitali ishtirokidagi venchur fondlarini tashkil etishga kirishdilar, ularning faoliyati start-uplar va innovatsiyalarni qo‘llar-quvvatlashga qaratilgan. Germaniyada Deep Tech & Climate Fonds bir milliard yevro ustav kapitali bilan tashkil etildi, Fransiyada start-uplarni moliyalashtirish yangi milliy strategiya France-2030 doirasida innovatsion texnologiyalarga 500 million yevroni sarmoya qilish ko‘zda tutilmoqda» [10].

«Koreyada 2023-yilda davlat kapitali ishtirokida yangi ustav kapitali 6,8 milliard dollarli venchur fondi tashkil etildi. Yaponiya 2022-yilning oxirida yangi start-up-strategiyasini qabul qildi va 2023-yilda start-up-vizalarini joriy etish, start-up xodimlariga (shu jumladan freelanserlarga) opsiyonlar berish va boshqa imtiyozlarni e‘lon qildi; Kanada start-up-viza dasturini moliyalashtirishini kengaytirdi; hatto NATO mamlakatlari ham harbiy texnologiyalar va xavfsizlik sohasida start-uplarni qo‘llab-quvvatlash uchun 1,1 milliard dollari venchur fondini tashkil etishdi» [11]. Venchur fonlarining riskli obyektlarga qaratilgan investitsiya siyosati o‘zgarmay qoldi.

Jumladan, «AQShda dunyoning eng venchur-intensiv bozorida, venchur fondlarining ichki daromad normasi 2022-yilning ikkinchi yarmida salbiy tendensiyaga ega bo'ldi va umumiy jahon venchur bozorida 16,8 foizni tashkil etdi. 2022-yil davomida AQSh venchur fondlariga 92 milliard dollar kiritgan bo'lsa, ularning daromadi sarmoyalardan ancha kam, 43,4 milliard dollarni tashkil etgan» [12].

Venchur fondlari risklilik darajasi yuqori bo'lgan loyihalarga investitsiya qilishlari bilan ajralib turadilar, «Jahonda eng kam zarar ko'rgan loyihalar skayl-aplar hisoblanadi. 2022-yilda skaylaplarga qilingan investitsiyalar atigi 1,9% ga kamaydi» [13].



2-rasm. Ayrim turdagi kompaniyalar uchun jahonda venchur investitsiyalar hajmi, mlrd dollar [5]


«Oxirgi 10 yil ichida venchur tashkilotlari keskin sur'atlar bilan o'sib kelmoqda. Jumladan, bitimlar soni yiliga o'rtacha 20,5% ga, daromad hajmi - 38,8% ga (umuman venchur kapital bo'yicha - mos ravishda 13,9% va 30,1%) o'sishi kuzatildi. Venchurlarga sarmoya kiritadigan korporatsiyalar soni (o'z yoki investitsiya qilingan tashqi mablag'lar orqali) 2012-yildagi 473 tadan 2022-yilda 2604 taga, ya'ni olti baravardan ko'proq o'sdi» [14].

«2022-yilda venchur investitsiya fondlari uchun salbiy ko'rinishga ega bo'ldi, start-uplarga va boshqa venchur loyihalariga bo'lgan sarmoyalar salmoqli pasayish ko'rinishiga ega bo'ldi, ammo shunga qaramasdan, umumiy investitsion faoliyatga berilayotgan baho shuni ko'rsatdiki, venchur investitsiyalar sonining kamayishi 1,7%ni tashkil etdi. Umumiy investitsiyalar hajmi ba'zi tarmoqda deyarli 40% gacha kamaygan. Bunga asosiy sabab sifatida, «2022-yilda 101 ta korporativ venchur fondlari (2021-yilda - 85, 2020-yilda - 60) tashkil etilganligini keltirish mumkin» [15]. Hozirgi tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, venchur fondlarining aksariyati, ular aynan innovatsiyalar bilan shug'ullanganligi sababli, iqtisodiy tebranishlarni o'zida his qilish ehtimoli kamroq, ular iqtisodiy turg'unlik bo'lgan mamlakatlarda ham ijobiy

siljishlarga ega. Bunga ta'sir etuvchi quyidagi omillarni ko'rib chiqishimiz maqsadga muvofiq:

Birinchi determinant bu – venchur tashkilotlarining innovatsion loyihalarga bo'lgan qiziqishlari juda baland, yuqorida aytib o'tganimizdek, ular inflyatsiya va boshqa tebranishlarga bardosh bera olishlari bilan oddiy investitsiyalardan farq qiladilar. «Bunga misol sifatida, 2020–2021-yillardagi inqiroz yillarida yirik kompaniyalarning 40% ga yaqini yangi biznesga pul tikishga tayyorligini, yana 65%i o'z tashkilotlarining ixtisoslashuvida tub o'zgarishlar bo'lishini kutganligini keltirish mumkin» [14].

Ikkinchi determinant, venchur fondlarining aksariyati, albatta to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar bilan ham shug'ullanadilar, demak venchur sarmoyalaridan ko'rgan zararni boshqa yo'nalishlar bilan ham qoplashlari mumkin, statistika ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki yuzlab venchur sarmoyalari inqirozga uchraydilar, ammo ularning bittasi muvaffaqiyatga erishib, barcha xarajatlarni qoplashi mumkin. Venchur kompaniyalarining uzoq muddatli investitsiyalarning mavjudligi, ushbu kompaniyalarga ustunlik beradi, uzoq muddatli sarmoyalarning risklilik darajasi qolgan investitsiyalarga nisbatan ancha past ko'rsatkichga ega.



3-rasm. Korporativ venchur fondlari faoliyati modeli, 2022-yilda foizlarda [5]

Uchinchi determinant, bu fondlarning asosiy vosita, yangi texnologiyalarga qilingan sarmoyalari, moliyaviy investitsiyalardan ko'ra risklilik darajasi deyarli yo'qligi bilan ifodalanadi.

Venchur fondlari deganda nafaqat texnika innovatsiyalariga sarmoya qilish, balki boshqa start-uplarga ham sarmoya qilish tushuniladi, masalan rivojlangan davlatlarda texnologik investitsiyalarga venchur fondining yarmi ham investitsiya qilinmay, ular yangi biznesni rivojlantirish, raqamlashtirish kabi loyihalarni qo'llab

quvvatlaydilar. AQShda 3%, Xitoyda 20% ventchur fondlarining sarmoyalari aynan texnologik yangilanishga qaratilgan.

Natijada, korporativ tadbirkorlik uchun investitsiya yoʻnalishlari doirasi juda kengayadi, chunki korporativ fondlar professional fondlar kabi texnologik shov-shuvlarga taʼsir qilmaydi, ular investorlar mablagʻining koʻpayishi va qaytarilishi uchun harakat qiladi.

Venchur tashkilotlarining moliyaviy holati va strategiyasining tahlilida ular faoliyatidagi maʼlum bir kamchiliklar mavjudligi diqqatimizni tortdi.

Faqat ventchur investitsiyalari bilan shugʻullanadigan tashkilotlar 2022-yilga kelib oʻz investitsiyalarini qisqartirishlariga toʻgʻri keldi, ular buni jahon bozorida tebranishlar bilan asoslaydi, ammo ham ventchur, ham toʻgʻridan toʻgʻri investitsiyalar bilan shugʻullanadigan tashkilotlar oʻz sarmoyalarini qisqartirmaslikka erishdilar.

Venchur investitsiyalarining salbiy tarafga kamayishi, turli hil vaziyat bilan baholanadi, masalan stagflyatsiya, mamlakatlar oʻrtasidagi siyosiy tarang holatlar, hattoki qurolli toʻqnashuvlar, iqtisodiy sanksiyalar, Xitoy va AQShdagi yirik ventchur fondarining yopilishi va shu kabilarning misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Albatta bularning barchasini vaqtinchalik holat boʻlishiga umid qilamiz.

Investitsion ventchur fondlari uzoq muddatli investitsiyalar bilan shugʻullanmasdan, balki start-uplar va biznesning yangi yoʻnalishlari bilan ishlash ekotizimini ham yaratdilar. Albatta uzoq muddatli investitsiyalarda zararlilik koeffitsiyenti bir muncha kamroq, ammo yangi innovatsiyalarning daromadlilik darajasi ancha yuqori. Shuning uchun ventchur fondlari riskli loyihalarning investitsiyalari bilan shugʻullanadilar.

«Franksiyaning Total Energies kompaniyasi misolida, kompaniya 2023-yilda oʻz korporativ ventchur fondini (Total Carbon Neutrality Ventures) doimiy akseleratorga aylantirgan, bunga qadar 2019-yilda urugʻlik texnologiyalariga sarmoya kiritgan va shu maqsadda 400 million yevro ajratgan edi. Total misolida, bu foiz faqat ekotizimning mavjudligi, balki iqlim texnologiyalariga va kompaniyalariga boʻlgan qiziqishning ortishi natijasida muvaffaqiyatga erishgan. Venchur fondini akseleratorga oʻzgartirish esa bu jarayonni boshidan boshlash kerakligining belgisidir» [16].

«BP misoli ham urugʻlik sarmoyalarining muvaffaqiyat kafolati emasligini koʻrsatadi. BP 2013-yilda shunday yoʻl tutgan va uning ventchur fondi 70 dan ortiq kompaniyalarga sarmoya kiritgan, ammo uning Launchpad tashabbusi 2018-yildan beri unchalik muvaffaqiyatli emasligini koʻrish mumkin. Launchpad hali ham faqat besh kompaniyaga egalik qilmoqda va ulardan ikkitasi 2023-yilda sotilish boʻyicha muzokaralar olib bormoqda» [14].


Shell kompaniyasini misol tariqasida tahlil qiladigan boʻlsak, ularning faoliyati ijobiy tendensiyaga ega, ular barcha ventchur obyektlarini oxirgi nuqtasigacha nazorat qilishga harakat qiladilar. Shell Gamechanger dasturi (urugʻlik investitsiyalar), Shell

Start Up Engine, Shell Ventures tashkilotlari Shell tashkiloti tomonidan sarmoya olgan. Shell, shuningdek, Shell Tech Works start-up-studiyasi orqali start-up loyihalariga sarmoya qilish bilan ham shug'ullanib kelmoqdalar, ularning asosiy maqsadi venchur sarmoyalari orqali bozorda yangi mavqega ega bo'lishdir.

Ko'pchilik korporativ tadbirkorlar «o'z venture fondi + uchinchi tomon professional fondlariga sarmoya kiritish» kombinatsiyasidan foydalanadilar, bu ularning 55%i tomonidan qo'llaniladi. Bunday investitsiyalarning motivlari turli-tuman bo'lishi mumkin, ammo CVCning so'nggi so'rovlariga ko'ra, ko'pchilik bosh direktorlar bu kabi sarmoyalarning imkoniyatlar maydonini kengaytirish bilan bog'lashadi. Ulardan 27%i qo'shni bozorlarga kengayishni asosiy motiv sifatida ko'rsatsa, 26%i erta bosqichdagi bitimlarga eksklyuziv kirishni, 25%i esa geografik kengayish imkoniyatini ko'zlayotgani ma'lum bo'ldi» [5].

Investitsion venchur fondlari oxirgi 10 yillikda muayyan rivojlanish tendensiyasiga ega bo'ldi, ular o'zlarining qat'iy ekotizimiga ega bo'ldilar, dunyodagi barcha siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarga elastikligini ko'rsatib, moslashuvchanlik xususiyatiga ega bo'ldilar, bu albatta ijobiy holat sifatida belgilanadi.


Bugungi kunda avtomobilsozlik sanoati ko'plab venchur investitsiyalarni qabul qilmoqda. Jahondagi energiya taqchilligi elektromobillarga bo'lgan talabni oshirib yubordi. Gibrat avtomobillar va elektromobillarga bo'lgan talab, aksariyat hollarda venchur investitsiyalarini aynan shu korxonalarga investitsion oqimni o'tishi bilan belgilanmoqda. Venchur fondlarining aynan shu sanoatga bo'lgan qiziqishi 2022-yildan boshlandi va ijobiy prognozlariga ega.



4-rasm. Yangi venchur korporativ tashabbuslari soni [5]

Masalan, «Hyundai Kaliforniyada yangi mobillik texnologiyalariga sarmoya kiritish uchun Hyundai Cradle bo‘limini tashkil etgan (2017-yildan beri 45 ta tranzaksiya amalga oshirilgan); Toyota Ventures ham Kaliforniyada joylashgan; Porche Ventures AQShning Palo Alto, Isroilning Tel-Aviv va Xitoyning Shanxay shaharlarida filiallarga ega; Xitoyning SAIC kompaniyasi ham Menlo Parkdagi SAIC Venture Capital orqali Amerika start-uplariga sarmoya kiritmoqda, uning portfelida 31 ta kompaniya mavjud» [5].


Oxirgi yillarda investitsion tashkilotlar texnologik jihatdan vechur fondlariga investitsiyalarni innovatsiya va amaliy yondashuvlarni muvaffaqiyatli birlashtirib kelmoqdalar. Vechur investitsiyalarining aksariyati yashil iqlim o‘zgarishi, kvant texnologiyalari, robototexnika- kabi yo‘nalishlarga e’tibor qaratmoqda. Shu bilan birga, ularning yo‘nalishi raqamli texnologiyalar, raqamli boshqaruv jarayonlari va ishlab chiqarishni raqamlashtirish kabi masalalarga urg‘u bermoqdalar.



5-rasm. Korporativ vechur fondlarining texnologik ustuvor yo‘nalishlari, 2022-yil [17]

2023-yilda amalga oshirilgan prognozlar shuni ko‘rsatdiki, vechur bozori rivojlanishi mumkin, ammo ma’lum bir ko‘rsatkichlarni tahmin qilish qiyin. Pandemiya asoratlari, siyosiy o‘zgarishlar va moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar, vechur fondlariga kuchli ta’sir etmasligini bilamiz, ammo hozirgi kunda vechur fondlarining taqdiri boshqa investitsiya fondlari kabi ta’sirchan bo‘lish ehtimoli ham yo‘q emas. AQShning investitsion «Dealroom platformasi» ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning birinchi yarmida global vechur kapital start-uplarga 130 milliard dollar sarmoya kiritgan va bu 2022-yildagiga qaraganda ikki baravar ko‘p bo‘lsa ham hozirgi kunda vechur investitsiyalar bozorini keskin ortib bordi degan xulosa qilishimiz qiyin.

Korporativ fondlar va strategik fondlar ham kelgusida ventchur investitsiyalariga sarmoya qilishdan bosh tortishi mumkinligi prognoz qilinmoqda, bugungi kunda ancha tashkilotlar to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar bilan shug‘ullanishni afzal ko‘rmoqdalar.



6-rasm. Jahon korporativ ventchur fondlarining yaqin 2-3 yildagi holati, foizda [5]

Menejerlarning taxminiga ko‘ra korporativ fondlar uchun ventchur investitsiyalari ushbu fondlarni rivojlantirishda asosiy omil deb hisoblanadi. Ammo bugungi kunda start-uplarga qilinadigan investitsiyalarning soni kamayib bormoqda, start-up loyihalariga bo‘lgan talablar esa ortib bormoqda, buni mamlakatimiz misolida ham ko‘rishimiz mumkin, start-uplarga qo‘yilgan talablar ancha yuqori.

2022-yilda korporativ kapital ishtirokidagi ventchur bitimlari soni deyarli o‘zgarmagani, ammo aksariyat tashkilotlar ventchur investitsiyalaridan ko‘ra to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni afzal ko‘rganliklari sababli, ushbu holatda 2023-yilgi natijalar to‘g‘risida so‘z yuritish ancha qiyinchilik tug‘diradi.

AQSh, Yaponiya va Xitoy eng yirik ventchur bozorlari bo‘lib hisoblanadi, ularning ulushiga umumiy bozorning katta qismi to‘g‘ri keladi, ularning bugungi holatini tahlil qiladigan bo‘lsak, Xitoydagi Tencent (1100 dan ortiq kompaniya portfeli bilan dunyodagi eng faol ventchur kapital fondlaridan biriga ega) va Alibaba Group bugungi kunda ventchur kompaniyalariga investitsiya qilmaslikka qaror qildilar, ular qimmatli qog‘ozlar bozorida o‘zlarining investitsion siyosatini o‘zgartirib, faoliyatlarini qayta ko‘rib chiqdilar. Byte Dance garchi tashkiloti to‘g‘risida so‘z yuritadigan bo‘lsak, bu tashkilot Xitoyning eng yirik ventchur tashkilotlaridan bo‘lishiga qaramay va bundan oldingi yillarda eng ko‘p sarmoyasini aynan ventchurga joylashtirganiga qaramay, 2022-yilda ventchur bozordan butunlay chiqib ketdi.

Buyuk Britaniya, Franksiya, Germaniya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda barcha sohalarga texnika texnologiyalarni kirib borishi raqobatning sustlashishiga olib

kelishini ko'rishimiz mumkin, shu sababli rivojlangan bozorlarda venchur investitsiyalarning o'rni ancha yuqori salohiyatga ega.

Ushbu tadqiqot mamlakatning innovatsion-investitsion faoliyatida venchur investitsiyalarining o'rni, amalga oshirish tartibi va xorijiy tajribasini tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

2016-2021-yillar davomida global venchur kapital bozori sezilarli darajada o'sdi, biroq 2022-2023-yillarda inflyatsiya, foiz stavkalarining oshishi va geosiyosiy beqarorlik tufayli venchur sarmoyalari kamaydi.

2023-yilda venchur bozori hajmi 243 milliard dollarni tashkil etdi, bu esa 2022-yilga nisbatan 46% pasayganini ko'rsatadi.

Sun'iy intellekt, kvant texnologiyalar va yashil iqtisodiyot yo'nalishidagi venchur investitsiyalari barqaror o'sish sur'atiga ega bo'lib qolmoqda.

Jahonda venchur investitsiyalari tendensiyasiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi:

AQSh va Xitoydagi yirik venchur fondlarining yopilishi global bozorga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Yevropada start-up va skaylap loyihalarni moliyalashtirish maqsadida yangi venchur fondlari tashkil qilinmoqda, ammo sarmoyalar hajmi hali kutilgan darajaga yetmagan.

Koreya, Yaponiya va Kanada kabi mamlakatlarda davlat kapitali ishtirokidagi venchur fondlari tashkil etilib, start-up loyihalarini qo'llab-quvvatlashga e'tibor kuchaytirilgan.

O'zbekistonning venchur investitsiyalar bozoridagi holatni quyidagicha izohlash mumkin:

- O'zbekistonda venchur kapital bozori hali rivojlanish bosqichida bo'lib, venchur fondlarini jalb qilish uchun qulay muhit yaratilmagan;
- investitsion xavflarni kamaytirish va start-up loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan qo'shimcha rag'batlantiruvchi mexanizmlar talab etiladi;
- mavjud to'g'ridan-to'g'ri investitsiya va moliyaviy vositalar venchur kapitalning rivojlanishi uchun yetarli emas.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalar chiqarildi:

- venchur investitsiyalari innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ular yuqori risklarga ega bo'lishiga qaramay, uzoq muddatda texnologik taraqqiyot va iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shadi;
- 2022-2023-yillardagi global iqtisodiy o'zgarishlar venchur kapital bozorida pasayish keltirib chiqardi, biroq bu vaqtinchalik jarayon bo'lishi mumkin, chunki texnologik innovatsiyalar va yangi biznes modellar venchur fondlarini jalb qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi;

- O'zbekiston venchur investitsiyalar bozorini rivojlantirish uchun xalqaro tajribadan o'rganishi va start-up ekotizimini shakllantirishga yo'naltirilgan islohotlarni amalga oshirishi zarur;

- venchur fondlarini barqaror rivojlantirish uchun davlat tomonidan qonunchilikni takomillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va investorlar uchun himoya mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi.

Venchur investitsiyalari orqali innovatsion rivojlanishni jadallashtirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- davlat tomonidan venchur fondlari va start-uplarga soliq imtiyozlari berish orqali sarmoya jalb qilishga ko'maklashish;

- O'zbekiston uchun mos keluvchi venchur investitsiyalar modeli ishlab chiqish, bunda AQSh, Yevropa va Koreya tajribalaridan foydalanish;

- yangi start-uplarni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat grantlari va subsidiyalarni kengaytirish;

- venchur kapital to'g'risidagi qonunchilik bazasini xalqaro standartlarga moslashtirish;

- investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish va venchur loyihalariga qo'yiladigan tartib-qoidalarni soddalashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Венчурные инвестиции: что это такое и кому они подходят. Подробнее на сайте Banki.ru <https://www.banki.ru/news/daytheme/?id=10944781>

2. Gompers, P. & Lerner, J. (2004). "The Venture Capital Cycle".

3. Block, J. et al. (2018). "Venture Capital, Entrepreneurial Finance, and Innovation". Journal of Business Venturing.

4. Mason, C. & Harrison, R. (2015). "Business Angel Investment Activity in the Financial Crisis: UK Evidence". International Small Business Journal.

5. World Investment Report-2023: Investing in Sustainable Recovery. UNCTAD.

6. Kenney, M. & Zysman, J. (2019). "Unicorns, Startups, and Ecosystem Development". Industrial and Corporate Change.

7. Huang, Y. & Khanna, T. (2003). "Can India Overtake China? Institutions, Policies, and Growth". Harvard Business Review.

8. Lerner, J. (2009). "Boulevard of Broken Dreams: Why Public Efforts to Boost Entrepreneurship and Venture Capital Have Failed". Princeton University Press.

9. Poterba, J. (1989). "Venture Capital and Capital Gains Taxation". Brookings Papers on Economic Activity.

10. Венчурное финансирование. Стартапов и Портфельные компании. <https://www.rbasia.uz/venture-capital>

11. Что такое венчурные инвестиции: какому бизнесу подходят и как работают. Источник: <https://secrets.tinkoff.ru/razvitie/venchurnye-investicii/>© Бизнес-секреты

12. Столяров И.И., Авласенко И.В. Венчурные инвестиции и их роль в инновационном развитии экономики. <https://cyberleninka.ru/article/n/venchurnye-investitsii-i-ih-rol-v-innovatsionnom-razvitii-ekonomiki>

13. Mukhitdinova K.A. Directions of attracting foreign capital and specific characteristics of the eurobond transaction// Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal. 2023-yil, iyun. № 6-son //407-411 B.

14. Венчурное инвестирование инновационных проектов. Ц^: http://www.innovbusiness.ru/content/document_г_FD29945E-6FF2-4D19-9F0F-30A8524C5BD7.html.

15. Mukhitdinova K.A. Stimulation of attracting foreign direct investments// TAJMMR: Trans Asian Journal of Marketing & Management Research ISSN: 2279-0667 Vol. 12, Issue 2-3, SJIF=8.119, Feb-March, 2023. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:tajmmr&volume=12&issue=2and3&article=001>

16. Mukhitdinova K.A. Investitsion faoliyatni amalga oshirishning xorij tajribasi va ulardan mamlakatimizda foydalanish istiqbollari// Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar 2023 №3 ISSN 2181-7286. ilmiy-metodologik va ilmiy-uslubiy jurnal

17. Mukhitdinova K.A. Ways of increasing the efficiency of foreign investments// TAJMMR: Trans Asian Journal of Marketing & Management Research ISSN: 2279-0667 Vol. 12, Issue 2-3, SJIF = 8.119, Feb-March, 2023.

18. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:tajmmr&volume=12&issue=2and3&article=002>